



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-noyabr

665-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 718-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 560-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda aholining yuqori sifatli va qulay yo‘lovchi tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirish, sohada bozor tamoyillarini joriy etish, moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali xususiy sektor uchun jozibali biznes muhitini yaratish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 718-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 560-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 20-noyabrdagi 560-6-0-Q/24-son qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi 718-son qarori bilan:

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti (keyingi o‘rinlarda — Ma‘muriy reglament) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

tashuvchilarning shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berishi;

norentabel avtobus yo‘nalishlaridan ko‘rilgan zararlarni qoplash bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish;

norentabel avtobus yo‘nalishlariga subsidiya ajratish tartibi va shartlari; belgilanishicha:

Ma‘muriy reglamentga muvofiq tashuvchilar shahar va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish yuzasidan YAIDXP orqali 2025-yil 1-fevraldan boshlab murojaat qiladilar;

shahar va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berishda talab etiladigan ma‘lumotlarni (hujjatlarni) ko‘rib chiqish uchun yig‘im undirilmasligi;

Vazirlar Mahkamasining “Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-oktabrdagi 630-son qarorining 6-bandi quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilganligi;

“bunda mazkur qarorning 4 va 6-bandlarida nazarda tutilgan shahar atrofi yoki viloyat ichidagi shaharlararo avtobus yo‘nalishida ko‘riladigan zarar miqdori Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududi uchun, istisno tariqasida, 40 foizgacha (40 foiz ham shu jumlagi kiradi) miqdorda qoplab beriladi” deb belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov va tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov